

JAMOAT XAVSIZLIGINI TA'MINLASH TIZIMIGA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINI JORIY QILISHNING XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15105243>

Abjalov Abdijabbor Maxammadiyevich

IIV Malaka oshirish instituti Maxsus kasbiy fanlar kafedrası dotsenti, dotsent.

Annotatsiya

Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimiga axborot texnologiyalarini joriy qilishning xususiyatlari hamda ijtimoiy-siyosiy mohiyati haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada bugungi kunda global miqyosda ro'y berayotgan jadal o'zgarishlar, jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq ishlarni global tendensiyalarga mutanosib tarzda amalga oshirish va raqamli inqilob sharoitida jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalaga aylanayotganligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar

jamoat, xavfsizlik, global, axborot, texnologiya, raqamli texnologiya, internet, ma'naviyat, xakerlar, siyosiy faollik.

ОСОБЕННОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМУ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА

Аннотация

В данной статье научно анализируются особенности внедрения информационных технологий в систему обеспечения общественной безопасности, а также мнения о социально-политическом характере. В статье также научно освещаются быстрые изменения, происходящие сегодня в глобальном масштабе, осуществление работ, связанных с внедрением современных технологий в систему общественной безопасности, пропорциональным мировым тенденциям образом, а также тот факт, что использование современных информационных технологий в области обеспечения общественной безопасности в контексте развитие цифровой революции становится актуальной проблемой.

Ключевые слова

Общественная, глобальная, информационная, безопасность, цифровые технологии, Интернет, духовность, хакеры, политическая активность.

FEATURES OF THE INTRODUCTION OF INFORMATION TECHNOLOGY INTO THE SYSTEM OF ENSURING PUBLIC SAFETY

Annotation

In this article, opinions on the socio-political essence of implementing information technologies in the public security system are scientifically analyzed. Also, the article scientifically highlights that the use of modern information technologies in the field of ensuring public safety is becoming a pressing issue in the context of rapid changes taking place today on a global scale, technological progress, and the digital revolution.

Keywords

Public, Security, global, Information, Technology, Digital Technology, Internet, spirituality, hackers, political activism.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan ularning ishlash xavfsizligini ta'minlash tobora dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu nafaqat ushbu tizimlarning ishonchlilik darajasini oshirish, balki tegishli ma'lumotlarni, shu jumladan fuqarolarga oid shaxsiy ma'lumotlarning tarqalib ketishining oldini olish bilan bog'liq. Bu o'z navbatida, xavfsizlik tizimlarining infratuzilmasiga zarar yetkazish (buzish) maqsadida ruxsatsiz (sanksiyalashmagan) kirish bilan bog'liq salbiy holatlarning oldini olish imkonini beradi.

Shu bois, bugungi globallashuv va axborot omili tobora muhim ahamiyatga ega bo'layotgan davrda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimining zamonaviy tendensiyalarga hamohang rivojlanishi uni turli an'anaviy va yangi tahdidlardan himoya qilishning ilmiy-amaliy asoslarini yaratishni taqozo etmoqda. Bu ayniqsa, kiberhujumlar, ma'lumotlar bazasiga noqonuniy kirish urinishlari, videokuzatuv tizimlarini izdan chiqarish kabi tahdidlarga qarshi kurashish uchun muhimdir.

Shu o'rinda aytish kerakki, xavfsizlik tizimlaridagi ma'lumotlarni maxfiylashtirish va saqlash barcha davrlarga xos xususiyatdir. Raqamli texnologiyalar asrigacha bo'lgan davrda muayyan xavfsizlik ma'lumotlarini maxsus shifrlangan holda, ishonchli xodimlar va maxsus aloqa kanallari orqali yetkazishgan, saqlashgan va foydalanishgan. Bundan ko'zlangan maqsad – muayyan operativ ma'lumotlardan xabardor va unga ega bo'lishning cheklanganidir, masalan, jinoyatchilikka qarshi kurashish, terrorizmga qarshi kurash, jamoat tartibini saqlash bilan bog'liq maxfiy axborotlar shular jumlasidandir.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, hozirda axborot tizimlariga hujum qiluvchilar (xakerlar) faoliyatida "siyosiy faollik" kuzatilmoqda [1]. 2022 yil yakunlariga ko'ra, tashkilotlarning veb-resurslariga bo'lgan "muvaqqiyatli" hujumlarning soni 56 foizga ortgan (buning oqibatida 47 foiz konfidensial ma'lumotlar o'g'irlangan). Shuningdek, agarda yirik kompaniyalar veb-resurslariga hujumlar soni 2021 yilda 17 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2022 yilda bunday holatlar soni 22 foizga yetgan [2].

Mutaxassislar fikricha, "Axborot texnologiyalari" tizimini rivojlantirish bilan bir qatorda quyidagi muammolarni ham bartaraf etish talab etadi:

- tizimning xavfsizlik darajasini ta'minlash;
- internet tarmog'iga ulanish tezligini oshirish;
- soha kadrlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;

- tizimni boshqaruv hamda nazoratni mustahkamlash va boshqalar[3].

Shu bois, axborot texnologiyalarini joriy qilishning turli platformasining arxitekturasida axborot xavfsizligini ta'minlash masalasiga jiddiy etibor qaratilgan. Jamoat xavfsizligi tizimining ta'minlashning uzluksiz faoliyati bevosita unda axborot xavfsizligini ta'minlashni o'z ichiga oladigan quyidagi masalalardan iborat:

- tizimga ehtimoliy tahdid va xavf-xatarlarni aniqlash;
- turli tahdid va xavf-xatarlarga nisbatan qarshi tura olish va ularni bartaraf etish ko'nikma hamda mexanizmlarini yaratish;
- infratuzilmaning xavfsiz ishlashini doimiy tarzda audit qilib borish;
- xavfsizlik (*jumladan, antivirus yoki shpion viruslar*) tizimini yangilab borish;
- axborot texnologiyalarini joriy qilishning turli platformasiga mos kriptografik himoya mexanizmini yaratish va h.k.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, elektron tizimga tahdidlar umumiy tarzda undagi hujjatlarning mazmun-mohiyatiga (1) va uning texnik holatiga (2) qaratilgan bo'ladi. Bu borada quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- tizimdagi tegishli ma'lumotning himoyalanganlik (konfidensial) darajasiga tahdid;
- tegishli ma'lumotlar yaxlitligining (to'liqligining) buzilishi;
- tizimning xizmat qilishdan to'xtashi yoki sifatining pasayishi;
- ma'lumotlarni qo'lga kiritish va ulardan salbiy maqsadlarda foydalanish (tarqatish);
- himoya tizimini buzishga qaratilgan qasddan qilingan hatti-harakatlar;
- tizim bilan ishlovchi xodimlarning xatosi;
- axborot tizimining turli kutilmagan harakatlar oqibatida ishdan chiqishi (texnogen);

- u yoki bu ma'lumotni olish yoki yaxlit tizimni ishdan chiqarish maqsadida qasddan xakerlarning hujumi va h.k[4].

Shuni ham ta'kidlash kerakki, bu o'rinda gap bevosita jamoat xavfsizini ta'minlash tizimiga axborot texnologiyalarini joriy qilish to'g'risida ketmoqda. Zero, mutaxassislar ushbu tizimdagi ma'lumotlar faqatgina umumiy tavsifdagi, ya'ni omma uchun ochiq bo'lgan ma'lumotlar jumlasiga kiritiladi (ya'ni davlat siriga oid ma'lumotlar emas) degan fikrni bildirishadi[5]. Bunda ular ochiq ma'lumotlarni nima uchun va kimdan himoya qilish kerak, degan savolni o'rta tashlashadi. Bizningcha, davlat siridan tashqari, shaxsga doir ma'lumotlar ham aksariyat davlatlar qonunchiligiga ko'ra, oshkor qilinishi mumkin emas[6]. Shu nuqtai nazardan, bunday ma'lumotlarni himoya qilish muhim hisoblanadi.

Boshqa mutaxassislarning fikricha, axborot texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha interaktiv xizmatlarda ma'lumotlar konfidensialligini ta'minlashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

a) axborotning tarqab ketishi, o'g'irlanishi, buzilishi, qalbakilashtirilishining oldini olish;

b) shaxs, jamiyat, davlatning xavfsizligiga bo'lishi mumkin bo'lgan tahdidning oldini olish;

v) axborotni yo'q qilish, modifikatsiyalash, buzish, nusxa olish kabi noqonuniy harakatlarning oldini olish;

g) axborot resurslari va axborot tizimlariga noqonuniy ta'sir qilishning boshqa shakllarining oldini olish;

d) axborot tizimida mavjud bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini va konfidensialligini saqlash orqali fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoyalash;

ye) davlat sirlarini saqlash, qonunchilikka asosan tegishli axborot konfidensialligini ta'minlash, xususan hujjatlashtirilgan axborotga shaxsiy mulk ob'ekti sifatida huquqiy tartibni ta'minlash;

j) axborot tizimlari, texnologiyalari va ularni ta'minlash vositalarini loyihalash, ishlab chiqish va qo'llashda ishtirok etuvchi sub'ektlarning huquqlarini ta'minlash[7].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo'lidan borish imkonini beradi" [8]. Zero, jamoat xavfsizligining samarali himoyasi tizimdagi turli axborotni himoya qilish vositalarini unga bo'ladigan ehtimoliy tahdid va xavf-xatarlarga qarshi turadigan hamda bartaraf etishga qaratilgan faoliyatni talab etadi. Bunda tizimning barcha bo'g'inlarida xavfsizlik

siyosati ishlab chiqilishi va uning foydalanuvchilarga tushunarli bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, yuqoridagilardan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, axborot texnologiyalari doirasida jamoat xavfsizligini ta'minlash uni rivojlantirishning zaruriy va ajralmas qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алексеев Д. Взломай меня, если сможеш: какими будут главные IT-угрозы в 2023 году.
2. Актуальные киберугрозы: итоги 2022 года. // www.ptsecurity.com/ru-ru/research/analytics/cybersecurity-txreatscape-2022
3. Iminova N. Elektron hukumatni joriy etish sharoitida axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №3, may-iyun, 2016 yil. 1-8 b.
4. Анаская А. Защита электронного документооборота: Учеб. пособие. – Омск: СиБАДИ, 2019. – 87 с.
5. Афанасев Е. Защита информации в условиях применения документов ориентированных технологий (на примере системы «Электронное правительство»).//
6. O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasi.
7. Baxtiyorov A. Yuldashev A. Elektron hukumat interaktiv xizmatida ma'lumotlar konfidensialligini ta'minlash usullari // Iqtisodiyotning real tarmoqlarini innovatsion rivojlanishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati respublika ilmiy-texnik anjumanining ma'ruzalar to'plami 1-qism. Toshkent – 2017. 36 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. B-24.